DUNYOVIY YANGI SIYOSIY TARTIBOTI SHAROITIDA DINLARNING O‘RNI

Alijonov Muslimbek
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
v.b.dotsenti, t.f.f.d., PhD, Email: muslimbek@uwed.uz,
Otanazarova Donoxon
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
“Siyosatshunoslik” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada hozirgi globallashuv davrida dinlarning tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Tezisda bugungi jadal siyosiy rejimda jahonda dinlar qanday ta’sir o‘tkazayotgani,dunyo dinlarining insoniyat hayotidagi o‘rni,mohiyati va siyosiy dunyoda din tushunchasi,asosan islom dini talqinida yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Din, globallashuv islom, diniy bag‘rikenglik, radikalizm, ekstrimizm.*

Annotation: *This thesis analyzes the role of religions in the current era of globalization. It examines how religions influence the modern dynamic political order, the place and significance of world religions in human life, and the concept of religion in the political sphere, with a particular focus on the interpretation of Islam.*

Key words: *Religion, globalization of Islam, religious tolerance, radicalism, extremism.*

Аннотация: *В данном тезисе анализируется роль религий в современную эпоху глобализации. В работе рассматривается, как религии оказывают влияние на современный динамичный политический*

порядок, какое место и значение мировые религии занимают в жизни человечества, а также понятие религии в политической сфере, с особым акцентом на интерпретацию ислама.

Ключевые слова: *Религия, глобализация ислама, религиозная толерантность, радикализм, экстремизм.*

Din insoniyat taraqqiyoti tarixida eng qadimiy va eng ta’sirchan ijtimoiy institutlardan biri sifatida shakllangan. U nafaqat shaxsning e’tiqodiy dunyoqarashini belgilaydi, balki jamiyatning ma’naviy qiyofasi, axloqiy me’yorlari hamda siyosiy-ijtimoiy munosabatlariga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Tarixiy jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, din turli davrlarda jamiyatni birlashtiruvchi, ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlovchi omil bo‘lish bilan birga, ayrim hollarda ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarning ham markazida turgan.

Globallashuv sharoitida dinning o‘rni va ahamiyati yanada dolzarblik kasb etmoqda. Zamonaviy siyosiy tizimlar, xalqaro munosabatlar va madaniy jarayonlarda diniy omil muhim rol o‘ynaydi. Ayrim davlatlarda din siyosiy hayot bilan uzviy bog‘langan bo‘lsa, boshqalarida dunyoviylik tamoyili ustuvor hisoblanadi. Shu jihatdan, din va siyosat o‘rtasidagi munosabatni ilmiy asosda tahlil qilish, diniy bag‘rikenglik, radikalizm va ekstremizm kabi masalalarni chuqur o‘rganish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Din uzoq o‘tmishdan hozirgacha insonlar hayotining ajralmas bo‘lagi sifatida saqlanib kelayotgan, jamiyat va davlat hayotida insoniyat tarixidagi eng kuchli ijtimoiy-siyosiy kuch hisoblanadi. Diniy e’tiqod bu nafaqat bir shaxsning,balki butun jamiyat hayotiga,insonlarning axloqiy tamoyillari va siyosiy-ijtimoiy sifatlarni shakllantirishda muhim omil bo‘lib kelgan. Dinning jamiyatda tutgan asosiy roli bu insonlarning o‘zaro jipslashuviga,

birdamlikning rivojlanishi, diniy bag'rikenglik va o'zaro hurmatni saqlashda, axloqiy sifatlarni mukammallashtirishda deb qaraladi.

Shu bilan birga din nafaqat hozirgi global dunyoda balki tarixda ham siyosiy va sotsial nuqta'i nazardan muhim hisoblanib,jamiyat hayoti bilan uzviy bog'lanib kelgan.Sotsiologik tarafdan qaralganda ham din jamiyat uchun zarur narsa,ijtimoiy hayotning ajralmas bo 'lagi[1] hisoblanadi. Davlat va jamiyat hayotini dinsiz tasavvur qilib bo'lmaydi,albatta,bunga asos sifatida insoniyat hali qadimdayoq ularda turli xildagi diniy tasavvurlar mavjud bo'lganligini,xususan animizm,fetishizm va totemizm kabi diniy tasavvurlar ularning hayotidagi ajralmas bo'lak hisoblanganligini tarixdan ham bilamiz.

Dinning ijtimoiy hayotda qay darajada muhim ekanligi haqida S.F.Hantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" asarida ham shunday keltiriladi:"Jamiyatda diniy e'tiqod yo'qolsa, buning oqibati anarxiya, buzuqlik va madaniy hayotning boy berilishi bilan yakunlanadi"[2].Ayniqsa hozirgi jadal rivojlanib borayotgan davrda din bu haqiqatdan ham muhim omil. Chunki yangi dunyoviy siyosatda ularning funksiyalari avvalgidan biroz farq qiladi. Ayrim mamlakatlarda dinning siyosat bilan uzviy bog'liqligi aks ettirilayotgan bo'lsa ba'zi davlatlar din va siyosatni bir-biriga neytral tushuncha sifatida qarashga chaqiradi. Chunki, asosan Yevropa mamlakatlari dunyoviy davlat deb tan olinganligini hisobga olinsa, ularda asosan siyosiy tamoyillarga e'tibor qaratiladi. Ba'zi bir diniy Islom Respublikarida siyosiy hayotda ham diniy qadriyatlar ulug 'landi. Buning natijasi esa ularda madaniyat, ta'lim va axloqiy jihatlarda namoyon bo 'ladi. Maks Veber ta'kidlaganidek "Din insonning ijtimoiy harakatlarini yo'naltiruvchi eng kuchli axloqiy omil hisoblanadi"[3].

[1] D.A.Raximjonov va O.K.Ernazarov. Dinshunoslikka kirish. – T.: "O'zbeliston faylasuflari ilmiy jamiyati" nashriyoti. 2018. – B. 304.
[2] S.Hantington. Sivilizatsiyalar to'qnashuvi. – T.: "Yangi asr avlodi" nashriyoti. 2023. – B 151.
[3] Weber, Max. The Sociology of Religion. Translated by Ephraim Fischoff. – Boston.: "Beacon Press". 1963. – P. 304.

Ammo bugungi kundagi bazibir qarashlar bu ta’limotni rad etadi. Bunga asosiy sabab ma’lum davlatlarning dinga bo‘lgan noto‘g‘ri talqinidir.Misol uchun Afg‘onistondagi siyosiy vaziyatni axloqiy omil deb hisoblab bo‘lmaydi.Bunga asosiy sabab din niqobi ostidagi ayollar huquqlarining cheklanishi yoki umuman boshqa bir davlatdagi terrorizm va diniy ekstrimistik guruhlarning avj olganligi, asosan Islom dini ta’limotlarini mutlaqo noto‘g‘ri talqin qilinishi oqibati deb qaraladi. Ijobiy tarafdan qaraganda ko ‘plab mamlakatlarda din siyosatning markazi hisoblanadi va bugungi globallashgan jamiyatda buning bir qancha siyosiy omillari insoniyat hayotini yaxshilashgava qisman o ‘zgartirishga sabab bo ‘moqda. Bu xususda HantinGtonning “Kelajakdagi siyosiy mojarolar mafkuralar orasida emas,balki sivilizatsiyalar,ayniqsa diniy qadriyatlar o‘rtasida kechadi” [4]kabi fikrlari hozirgi siyosiy hayotda dinning o‘rni, ahamiyati va mohiyatining qanday muhim ekanligini anglatadi.BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar ham bugungi kunda dinning xalqaro darajasini tan oladi va jamiyatda din haqiqatdan ham dinlararo muloqotni qo ‘llab quvvatlash orqali insonlar hayotini tubdan yaxshilashga, undan tashqari turli ijtimoiy-gumanitar yordamlar orqali mavjud tartibni isloh qilishga,dunyodagi tinchlik,birdamlik va tarqqiyotga xizmat qilayotganligining e’tirof etadi.Mamlakatimiz misolida ham yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning BMT minbarida “ Biz dinlararo totuvlik va bag ‘rikenglikni global tinchlikning asosi deb bilamiz” kabi nutqlari ham xalqaro miqyosda dinning siyosiy irodasini aks ettiradi.

Xulosa o’rnida aytganda, bugungi siyosiy tartibot sharoitida dinlarning o ‘rni nihoyatda muhim. Din siyosatni ma’naviy, iqtisodiy,ijtimoiy tarzda boyitadi,ammo ba’zi hollarda siyosat va din mustaqil bo ‘lishi talab etiladi.Global dunyoning asosiy shartlaridan biri siyosiy hayotda dunyoviy va

[4] S.Hantington.”Sivilizatsiyalar to ‘qnashuvi. – T.: “Yangi Asr Avlodi” nashriyoti. 2023. – B. 35.

diniy qadriyatlarning mustaqil bo ‘lishi ammo, dinlararo muloqotning doimiy shakllanishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1) D.A.Raximjonov va O.K.Ernazarov. Dinshunoslikka kirish. – T.: “O‘zbeliston faylasuflari ilmiy jamiyati” nashriyoti. 2018. – B. 304.

2) S.Hantington. Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi. – T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti. 2023. – B 151.

3) Weber, Max. The Sociology of Religion. Translated by Ephraim Fischoff. – Boston.: “Beacon Press”. 1963. – P. 304.

4) S.Hantington.”Sivilizatsiyalar to ‘qnashuvi. – T.: “Yangi Asr Avlodi” nashriyoti. 2023. – B. 35.